



ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

O'zbekiston bunyodkori

Строитель Узбекистана

№48 (1001)

2026 йил 26 июнь, жума

Газета 2016 йил 25 июлда
Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида
0874-рақам билан рўйхатга олинган.



ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА ЯНГИ ВАЗИФАЛАР БЕЛГИЛАНДИ

Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 25 июнь куни қурилиш материаллари тармоғида амалга оширилаётган ишлар ва келгусидаги устувор вазифалар муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилиши ўтказилди.

Давлатимиз раҳбари асосий масалага ўтишдан аввал ўтган ҳафта юксак савияда ўтказилган бешинчи Тошкент халқаро инвестиция форуми якунларига тўхталди. Форум доирасида хорижий ҳамкорлар билан 43 миллиард долларлик 177 та келишувга эришилгани таъкидланди.

– Ҳар бир келишув лойиҳага, иш ўрнига, юқори қўшилган қийматга айланиши шарт, – деди Президентимиз.

Мутасаддиларга хорижий инвесторлар томонидан билдирилган 120 та таклифнинг ечими бўйича қарор лойиҳасини киритиш топширилди. Умуман, тармоқ раҳбарлари ва ҳокимлар инвестиция сифати ва самарадорлиги бўйича ёндашувларини ўзгартириши зарурлиги кўрсатиб ўтилди.

Сўнгги беш йилда юртимизга киритилган жами инвестициянинг ярми 4 та ҳудуд ҳиссасига тўғри келган. Лекин жалб қилинган сармоянинг иқтисодиётга қайтими бўйича ҳудудлар ўртасида катта тафовут бор. Шу боис, ҳокимлар қайси туманда қайси тармоқни қандай ривожлантириш, қайси лойиҳага инвестиция олиб келинса, энг юқори самарадорликка эришиш мумкинлигини аниқ ҳисоб-китоб қилиши кераклиги қайд этилди.

Бунинг учун иқтисодиётдаги 12 та тармоққа 14 та “ақл маркази”, 37 та соҳавий илмий институт ва олийгоҳлар номма-ном бириктирилди. Барча тармоқ раҳбарларига “ақл марказлари”, соҳавий илмий институт ва олийгоҳлар билан ҳар бир туман имкониятини ўрганиб, ялли ҳудудий мақсулот ўсишига катта туртки берадиган лойиҳалар туپланини тайёрлаш топширилди.

Президентимиз қурилиш материаллари соҳасини курувчининг ишончини қозонадиган, сифат, стандарт, ассортимент ва нарх бўйича комплекс ечим таклиф қиладиган тармоққа айлантириш лозимлигини таъкидлади.

Бундан 10 йил олдин маҳаллий қурилиш материаллари деганда асосан қум-шағал, гишт, цемент, ойна ва шифер тушунилар, бу эса қурилишда ишлатиладиган жами материалларнинг бари бора 30-40 фоизини ташкил этар эди. Сўнгги ўн йилда соҳага 12 миллиард доллар инвестиция киритилиб, 4 мингдан ортиқ замонвий корхона ишга туширилди.

Натижада цемент, ойна, базальт, керамик бўйлар, газоблок, қуруқ қоршичмалар каби асосий турдаги 20 дан ортиқ мақсулотларга бўлган ички талабни тўлиқ қоплайдиган қувватлар яратилди. Иссиқлик сақловчи, композит материаллар, экологик пардозлаш материаллари ва пол қопламалари каби юқори қўшилган қийматли янги йўналишлар жадал ривожланмоқда.

Бутунги кунда янги уй-жойлар ва саноат бинолари қурилиши учун зарур материалларнинг 98 фоизини мамлакатимизда ишлаб чиқариш йўлга қўйилди. Натижада ўтган даврда соҳада ишлаб чиқариш ҳажми 7 триллион сўмдан 53 триллион сўмга ошди, экспорт эса ўтган йили 1,2 миллиард долларни ташкил этди. Энг муҳими, тармоқ импорт ўрнини босишнинг муҳим босқичидан ўтди.

Йил бошида аҳолини уй-жой билан таъминлаш бўйича катта дастур қабул қилинган эди. Унга қўра, 2040 йилга қадар қуриладиган уй-жойлар сонини 2 қарра ошириб, йилига 280 мингтага етказиш, “Янги Ўзбекистон” массивларини 61 тадан 120 тага кўпайтириш режа қилинган.

Бундан ташқари, ҳар йили 20-25 миллион квадрат метр тижорат бинолари фойдаланишга топширилмоқда. Уй-жой ва тижорат биноларининг ўзи йилига камиди 10 миллиард долларлик қурилиш материалларига талаб яратмоқда.

Тошкент халқаро инвестиция форумида хорижий ҳамкорларга яна 27 миллиард долларлик инфратузилма лойиҳалари таклиф қилинди. Жиззахда атом электр станцияси, Тошкент вилоятида 4-мис бойитиш фабрикаси, Ўрта Чирчиқда 20 миллион йўловчига хизмат кўрсатиш қувватига эга Янги Тошкент аэропорти, Янги Тошкентда 55 минг ўринли футбол стадиони, 282 километрни Тошкент – Самарқанд автомобиль йўли каби йирик лойиҳаларда ҳам, биринчи навбатда, қурилиш материаллари зарур бўлади.

Бундай йирик лойиҳаларда фойдаланиладиган материалларга стандарт, сифат ва сертификат бўйича юқори талаблар қўйилиши табиий. Шу боис, йирик лойиҳаларни маҳаллий ишлаб чиқарувчилар билан боғлайдиган янги тизим яратиш зарурлиги кўрсатиб ўтилди.

Йирик ва мегалойиҳаларга сармоа кири-таётган инвесторлар импорт материалларни олиб келишда қўшилган қиймат солигидан озод қилишни сўрамоқда. Шу билан бирга, бундай лойиҳаларга ўз мақсулотини таклиф қилиш исти-тағида бўлган маҳаллий корхоналар ҳам кўп. Улар қўшилган қиймат солиғи бўйича имтиёз маҳаллий мақсулотларга ҳам қўлланса, сифат ва стандарт бўйича рақобатга тайёр эканини бил-дирмоқда.

Мутасаддиларга йирик ва мегалойиҳаларга импорт ҳамда маҳаллий мақсулотларни етказиб беришда тенг шартини таъминлаш бўйича қарор лойиҳасини киритиш топширилди.

Йиғилишда ҳудудларда туризм инфратузил-масини ривожлантириш бўйича қабул қилин-

ган икки йиллик дастур ижросига ҳам эътибор қаратилди. Дастур доирасида 34 та йирик ту-ризм объекти, 1 мингдан ортиқ жойлаштириш воситаси, жумладан, 200 та меҳмонхона қуриш режа қилинган.

Ҳокимлар ҳудудларида барпо этилаётган меҳмонхоналарда маҳаллий материаллар улу-шини камиди 95 фоизга етказиши зарурлиги қайд этилди.

Мамлакатимизда ҳар йили ўртача 65 минг якка тартибдаги уй-жой қурилмоқда, яна 200-250 минг хонадон таъмирланмоқда.

– Очиқ айтиш керак, ҳали кўпчилик энер-гия тежамкор материалларнинг афзалликлари ҳақида етарлича хабардор эмас, – деди Прези-дентимиз.

Хонадонларни иситишнинг ўзига иқтисо-диётдаги жами газ истеъмолининг 20 фоизи, электр энергиясининг эса 11 фоизи сарflan-моқда. Агар уйнинг фасад ва том қисми иссиқ-лик сақловчи материал билан қопланса, энер-гия тежамкор ойна қўйилса, энергия сарфи 30 фоизгача камаяди.

Бу борада Франция ва Буюк Британия ком-паниялари ишлаб чиққан янги лойиҳалаш ёндашуви асосида Қашаши туманида 4 минг хона-донли “Янги Ўзбекистон” массиви қурилмоқда. Мазкур лойиҳада тўлиқ энергия тежамкор маҳаллий мақсулотлар ишлатилиб, таннарх 20 фоизга арзон тушади, уйни иситиш ва совутиш харажатлари 25-30 фоизга қисқаради.

Вилоят, туман ва шаҳарлар ҳокимларига Қашаши тажрибаси асосидаги янги лойиҳалаш ёндашувини ўрганиш топширилди. Жорий йилда Янги Ўзбекистон қиёфаси олиб кириладиган 33 та туман ва шаҳарда кўп қаватли уй-жой-лар қурилиши фақат шундай ёндашув асосида амалга оширилиши белгиланди.

Экспорт масаласига ҳам алоҳида тўхталиб ўтилди. Қўшни давлатлар йилига 13 миллиард долларлик қурилиш материалларини импорт қилмоқда. Марказий Осиё давлатларининг ўзи-га экспортни қўшимча 440 миллион долларга ошириш имконияти борлиги таъкидланди.

– Бир нарсани билинлар: ташқи бозорларда кучли рақобат, ҳар бир доллар учун кураш кета-ётган ҳозирги шароитда экспортни кўпайтириш учун ноанъанавий ечимлар керак, – деди давлат-тимиз раҳбари.

Озарбайжон, Грузия, Россия, Қозоғистон, Қирғизистон каби мамлакатларда уй-жой ва тижорат объекти қуриш бўйича катта дастурлар амалга оширилмоқда. Агар Ўзбекистон уй-жой қуриш бўйича ушбу давлатларнинг ишончли ҳамкорига айланса, бу электроника, уй текстили ва мебель корхоналари учун ҳам янги экспорт имкониятларини очади. Шу боис, масъуларга Бoku, Тбилиси, Москва, Остона ва Бишкекда 3-4 тадан намунавий, энергия тежам-кор уй моделини қуриб, road-show ўтказиш топ-ширилди.

Соҳада энергия самарадорлигини ошириш масалалари ҳам муҳокама қилинди. Сўнгги ўн йилда қурилиш материаллари корхоналари фойдаланадиган шартли ёқилғи ҳажми 2 қарра камайди. Тармоқдаги электр истеъмолининг 65 фоизи тўғри келадиган 34 та йирик корхона-да энергия аудити ўтказилгани ҳисобидан ўт-ган йилнинг ўзида 240 миллион киловатт-соат электр энергияси тежалди.

Лекин бу ҳали етарли эмаслиги қайд этил-ди. Вилоят ҳокимларига қурилиш материалла-ри корхоналарини технологик модернизация қилиш орқали энергия сарфини камайтириш бўйича катта дастурни бошлаш топширилди. Бунда иситиш ва қуришти печлари, тегирмон-лар ва энергия сарфи юқори бошқа ускуналарни энергия тежамкорларига алмаштирган корхо-наларга сўмдаги кредитнинг 7 фоизи, хорижий валютадаги кредитнинг 4 фоизи компенсация қилиб берилди.

Мамлакатимизда цемент, базальт, ойна, ке-рамик плита каби мақсулотлар бўйича яратил-ган қувватлар 2035 йилгача бўлган эҳтиёжларни қоплашга етарли. Энди инвесторларни бундай мақсулотларни кўпайтиришга эмас, мавжуд қувватларни модернизация қилиб, юқори қў-шилган қиймат берадиган лойиҳаларга жалб қилиш кераклиги таъкидланди.

Қурилиш материаллари корхоналарига сер-тификат олиш билан боғлиқ барча харажатни тўлиқ қоплаб берувчи тизим мавжуд. Бу каби имконият бошқа бирорта тармоқда йўқ. Лекин бундай сертификатларнинг ягона маълумотлар базаси бўлмагани учун харидорлар кўпроқ ўзи билган, халқаро сертификатга эга чет эл товар-ларини танламоқда.

Мутасаддиларга маҳаллий ва хорижий сер-тификати бор қурилиш материалларининг электрон платформасини ишга тушириш, вилоят ҳокимлари билан бирга шу йилнинг ўзида яна камиди 50 та қурилиш материаллари корхо-насига халқаро сифат сертификатига олишда қў-маклашиш топширилди.

Йиғилиш давомида мутасаддиларнинг ҳи-сobotлари, қурилиш материаллари корхона-лари вакилларининг таклиф ва ташаббуслари тингланди.

Ў.А.



Қурилиш соҳасида янги ҳамкорлик майдони

Мамлакатимизда қурилиш соҳаси кейинги йилларда иқтисодиётнинг энг тез суръатларда ривожланаётган тармоқларидан бирига айланди. Янги турар жой мажмуалари, саноат объектилари, инфратузилма лойиҳалари ва шаҳарсозлик дастурлари нафақат қурилиш ҳажмини оширмоқда, балки соҳада сифат, рақобат ва инновацияларга бўлган талабни ҳам кучайтирмоқда. Ана шундай шароитда бозор иштирокчиларини бир майдонда жамлаш, уларнинг ўзаро мулоқоти ва ҳамкорлигини мустаҳкамлаш муҳим аҳамият касб этади.

Абдужаббор АЛИҚУЛОВ,
“O'zbekiston bunyodkori” мухбири.

Тошкент шаҳридаги “JW Marriott Tashkent” меҳмонхонасида бўлиб ўтган “Build Connect –2026” форуми айнан шу эҳтиёждан келиб

чиққан ҳолда ташкил этилди. Ўзбекистон Қу-рувчилар ассоциацияси ташаббуси билан ўтка-зилган мазкур тадбир мамлакат қурилиш соҳа-си тарихидаги илк кенг қўламли профессионал форум сифатида эътироф этилди.

Форумнинг “Келажакни қурувчилар шу ерда учрашади” деган шиори унинг мазмун-моҳия-тини тўлиқ ифода этди. Чунки мазкур тадбирга



“Навоий иссиқлик электр станцияси”да қуввати 650 МВт бўлган учинчи буғ-газ қурилмасини барпо этиш бўйича инвестиция лойиҳаси изчил амалга оширилмоқда.



Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги (JICA) маблағлари ҳисобига молиялаштирилаётган мазкур лойиҳанинг умумий қиймати 786,7 мил-лион АҚШ долларини ташкил этади. Лойиҳа доирасида қурилаётган замонвий энергетика объектининг йиллик электр энергияси ишлаб чиқариш қуввати 4 миллиард 786 миллион ки-ловатт-соатга тенг бўлиши кўзда тутилган.

Мутахасссларнинг таъкидлашича, янги буғ-газ қурилмаси ишга туширилгач, йилига қарийб 870 миллион куб метр табиий газ тежа-лади.

Айни пайтда қурилиш майдонида ишлар жадал суръатларда олиб борилмоқда. Лойиҳани амалга оширишда Япония ва Туркия компания-лари мутахассслари билан бир қаторда маҳал-лий кадрлар ҳам иштирок этмоқда.

Қурилиш-монтаж ишларини жорий йил якунига қадар якунлаб, қурилмани фойдала-нишга топшириш режалаштирилган.

Transport vositalaridan chiquvchi shovqinning atrof-muhit va aholiga ta'siri

Avtomobil yo'llari mamlakat iqtisodiyotining muhim infratuzilimaviy elementi bo'lib, uning rivojlanishi transport oqimining ortishi bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq transport vositalari sonining ko'payishi yo'l bo'yi hududlarida ekologik va sanitar-gigiyenik muhitning yomonlashuviga olib keladi. Xususan, transport vositalaridan chiqadigan shovqin, zararli gazlar va vibratsiyalar tabiiy muhit komponentlari – havo, tuproq va biologik tizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Barno SALIMOVA,
Toshkent davlat transport universiteti
Avtomobil yo'llarini loyihalash va geomatika kafedrası professori, t.f.n.
Marjona XIKMATULLAYEVA,
Toshkent davlat transport universiteti talabasi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi shovqin nerv-asab tizimiga salbiy yuklama berib, stress, asabiylashish va uyqu buzilishlarini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, shovqin yurak-qon tomir tizimiga ta'sir etib, arterial bosimning oshishiga sabab bo'ladi. Uzoq muddatli ta'sir esa eshitish qobiliyatining pasayishiga, ayrim hollarda esa, eshitish a'zolarining shikastlanishiga olib keladi. Ba'zi ilmiy manbalarda shovqin darajasining ortishi umr davomiyligiga ham salbiy ta'sir etib, uni qisqartirishi mumkinligi qayd etilgan.

Shu bilan birga, transport shovqini atrof-muhitning biologik komponentlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, hayvonot dunyosi, xususan, qushlar va mayda sutemizuvchilar uchun shovqin muhim stress omili hisoblanadi. Ularning tabiiy xatti-harakatlari, jumladan, oziqlanishi, ko'payishi va migratsiya jarayonlari o'rganilishi mumkin. Natijada ayrim hududlarda bioxilma-xillikning kamayishi kuzatiladi. Bundan tashqari, yuqori shovqin darajasi o'simliklar o'sishiga bilvosita ta'sir etib, ekotizimlarning umumiy barqarorligini izdan chiqaradi.

Urban hududlarda transport shovqini ekologik komfort darajasini pasaytiradi, yashash hududlarining jozibadorligini kamaytiradi hamda aholi uchun noqulay akustik muhitni yuzaga keltiradi. Bu esa nafaqat inson salomatligi, balki ijtimoiy farovonlik va turmush sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qanday yechimlar qo'llanilmoqda?

Bugungi kunda transport shovqinining salbiy oqibatlarini kamaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada shovqinni kamaytiruvchi muhandislik yechimlari (akustik to'siqlar, past shovqinli yo'l qoplamalari), yashil himoya zonalarini barpo etish, transport oqimini tartibga solish va ekologik me'yorlarga asoslangan rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, kompleks yondashuv orqali transport shovqinining atrof-muhit va inson salomatligiga ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Transport shovqini va uning atrof-muhit hamda inson salomatligiga ta'siri masalasi bo'yicha MDH davlatlari va xorijiy mamlakatlarda keng ko'lami ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan izlanishlar transport shovqinining shakllanish mexanizmlari, uning darajasini baholash, prognozlash hamda kamaytirish usullarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, muhim ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan transport shovqinining salbiy ta'sirlarini o'rganish va uni kamaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, P. Pospelov, G. Osipov, I. Shishkin, I. Karagodina, A. Monin kabi tadqiqotchilar transport shovqinining fizik xususiyatlari va uning atrof-muhitga ta'sir mexanizmlarini o'rganaganlar. Shuningdek, Jon Shadiley, Robert Vadavn, Jek Persiy, Jacobson C., O. Kruze kabi olimlar o'z ishlarida transport shovqinini kamaytirishning muhandislik va tashkiliy yechimlarini ishlab chiqqanlar.

Yurtimiz olimlari tomonidan ham avtomobil yo'llarida transport shovqinini baholash, prognozlash va kamaytirish masalalari keng o'rganilgan.

Xususan, Q. Azizov, Z. Xudayberdiyev, Q. Usmanov, A. Xoliqov, F. Abduxalilovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda transport oqimi parametrlarining shovqin darajasiga ta'siri nazariy va eksperimental jihatdan asoslab berilgan. Ayniqsa, Q. Azizov va A. Xoliqovning "Avtomobil yo'llari va shahar ko'chalarida transport shovqinini pasaytirish" nomli monografiyasida respublika sharoitida transport oqimi ko'rsatkichlari, yo'l qoplamasi va ko'kalamzorlashtirishning shovqin darajasiga ta'siri kompleks tahlil qilingan hamda shovqinni kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xorijiy tadqiqotlar orasida Metehan Çalıř tomonidan olib borilgan ilmiy ishda avtomobil yo'llaridagi shovqinning hosil bo'lish sabablari, uning turlari va darajalari tahlil qilinib, shovqinni kamaytirishning iqtisodiy jihatdan samarali usullari asoslab berilgan. Nevil Wickramathilaka va Uznir Ujang tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa urban yashil hududlarning transport shovqinini kamaytirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslangan bo'lib, yashil maydonlarning akustik himoya vositasi sifatidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.


So'nggi yillarda transport shovqinining inson salomatligiga ta'siri ham chuqur o'rganilmoqda. Xususan, David Welch, Daniel Shepherd, Kim Dirks va Ravi Reddy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda transport shovqini bilan bog'liq kasalliklar, jumladan yurak-qon tomir va psixologik buzilishlar statistik tahlillar asosida yoritilgan. Mahalliy tadqiqotchilardan S. Yo'ldosheva tomonidan olib borilgan ishda esa shahar transport shovqini gigiyenik jihatdan baholanib, Samarqand shahri misolida uning darajasi amaldagi me'yorlar bilan taqqoslangan. Shuningdek, V. Vasilyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda transport oqimlarining shahar akustik muhitiga ta'siri kompleks baholanib, urban hududlarda shovqin darajasining shakllanish qonuniyatlari ochib berilgan.

Inson salomatligining xavfli "dushmani"


Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, shovqin – bu turli xil tovushlarning tartibsiz va nomutanosib qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan akustik hodisadir. Inson eshitish a'zolari odatda 16 Gs dan 20000 Gs gacha bo'lgan chastotadagi tovushlarni qabul qila oladi. Eshitish organi tomonidan sezilishi mumkin bo'lgan minimal tovush intensivligi "eshitilish ostonasi" deb atalib, u taxminan 1–10 dB diapazonida bo'ladi. Shovqin darajasi ortib borishi bilan uning inson organizmiga ta'siri ham kuchayadi.

Shovqinning chastota tarkibi yuqori bo'lgani sari uning inson eshitish tizimiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri ortadi. Masalan, tovush intensivligi 130 dB ga yetganda eshitish a'zolarida og'riq paydo bo'ladi, bu holat "og'riqli ostonaga" deb yuritiladi. 145 dB darajadagi shovqin esa quloq pardasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin, undan yuqori darajalar esa inson hayoti uchun xavfli hisoblanadi. Eshitish ostonasi bilan og'riqli ostonaga oraliq i' eshitish min-taqasi"ni tashkil etadi va bu diapazon shovqinning inson organizmiga ta'sir darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega.

1-rasm. Transport shovqinining atrof muhitga ta'sir chegarasi.



2-rasm. Transport vositalaridan tarqaluvchi shovqinning atrof-muhit va aholi salomatligiga bo'lgan ta'sirlari.



40% dan ortig'i sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi transport shovqini ta'sirida yashamoqda. So'ngi o'n yillikda olib borilgan tibbiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shovqin darajasining ortishi yurak-qon tomir kasalliklari va gipertenziya darajasining 2–3 baravarga oshishiga olib kelgan. Bundan tashqari, ayrim ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, yuqori darajadagi shovqin inson umr davomiyligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, uni o'rtacha 8–12 yilga qisqartirishi mumkin.

Shovqinning inson salomatligiga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, eshitish qobiliyatining pasayishi, uyqu buzilishlari, yurak-qon tomir kasalliklari, asab tizimi buzilishlari hamda bolalarda psixik rivojlanishning sustlashishiga olib keladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, shovqin bilan bog'liq shikoyatlarining 90% dan ortig'i 50 yoshdan oshgan aholi tomonidan bildiriladi. Shuningdek, ayollarning 96 foizi va erkaklarning 90 foizi transport shovqinidan turli darajada noqulaylik sezishini ta'kidlaydi. Gigiyenik me'yorlarga ko'ra, insonning normal dam olishi va tungi uyqusi buzilmasligi uchun ruxsat etilgan shovqin darajasi 40 dB dan oshmasligi kerak. Ushbu me'yorlardan ortiq shovqin darajasi esa inson organizmida turli kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu sababli transport shovqinini kamaytirish, uning darajasini nazorat qilish va atrof-muhit hamda inson salomatligiga salbiy ta'sirini cheklash zamonaviy ekologik va ijtimoiy muammolardan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi (2-rasm).

3-rasm. Avtomobil yo'llarida transport shovqinini kamaytirish choralari.

